

# SHAHAR KO'CHALARIDA SODIR ETILGAN YO'L-TRANSPORT HODISALARINING TAHLILI.

*To'rabek Xudoyberdiyev*  
*Jizzax Politexnika instituti assistenti*  
*Dinakaran Sabapathy,*  
*Sambhram, B.tech fakulteti o'qituvchisi,*

**Annotatsiya:** Transport vositalari sonining ko'payishi, shuningdek, tezlik va transport intensivligining oshishi yo'l harakati xavfsizligi muammosining yanada dolzarb bo'lishiga olib keladi. YTHning o'sishi bilan yaxshi ilashishi asosiy ko'rsatkichi-bu ilashish koeffitsienti bo'lib, u avtomobilning barqarorligi va boshqarilishiga tahsir qiladi. Maqolada shinalarning yo'l sirtiga ilashish koeffitsienti qiymatiga tahsir yetuvchi sharoit va sharoitlar o'rganiladi.

**Kalit so'zlar:** avtomobil, sekinlashuv, adgeziya koeffitsienti, yo'l yuzasi, yo'l sinovlari, pnevmatik shina, iqlim sharoiti.

**Abstract:** An increase in the number of vehicles, as well as an increase in speed and intensity of traffic, makes the problem of road safety more urgent. The main indicator of the good handling of YTH with growth is the coefficient of friction, which affects the stability and control of the car. The article examines the conditions and conditions that affect the value of the coefficient of adhesion of tires to the road surface.

**Key words:** car, deceleration, adhesion coefficient, road surface, road tests, pneumatic tire, climatic conditions.

Butun dunyoda avtomobillashtirish jarayonining o'sib borishi bilan YTHning o'sishi kuzatilmoqda. Biroq bularning barchasi to'g'ridan-to'g'ri qoidabuzarlik bilan bog'liq bo'lgan. Chet el davlatlarida YTHlarining absolyut qiymatini kamaytirishga yerishilmoqda. Bunda o'zlarining umumiy transport

tizimiga, avtomobillar va ularning xavfsiz harakatini tashkil etishga, yo‘l tarmog‘ini

takomillashtirishga bo‘lgan chora-tadbirlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda Respublikamizda jumladan shahrimizda ham aholi sonining ortishi natijasida transport vositalarining miqdori ortishi, ya’ni avtomobillashtirish darajasining o‘sishi kuzatilmoqda.

Yo‘l-transport hodisalarining oldini olish uchun ko‘rilayotgan qator tadbirlarga qaramasdan, ularning miqdori kamayishiga yerishib bo‘lmayapti. Bu esa, yo‘l harakati xavfsizligini oshirish va yo‘l-transport hodisalarining oldini olish muammolariga o‘ta jiddiy yondoshish zarur ekanligini mutaxassislar oldiga vazifa

YTH quyidagi vazifalarni hal qilish maqsadida tahlil qilinadi: -harakat xavfsizligiga taalluqli «Avtomobil-haydovchi-yo‘l-piyoda-muhit» tizimiga kiruvchi har bir omilning faoliyatiga tegishli tadbir va choralar ishlab chiqish uchun;

- biron-bir boshqaruv hududidagi, vazirliklardagi va ularning korxonalaridagi falokatlar ahvolini, o‘zgarish mohiyatini hamda istiqboldagi o‘zgarishini bashorat qilish maqsadida;

-YTHning kelib chiqish sabablarini va ularni bartaraf qilish borasida tuziladigan ko‘rsatmalarni ishlab chiqish uchun;

- YTH ko‘p qaytariladigan yo‘l bo‘laklarini aniqlash maqsadida;

- bitta yoki bir nechta bir xil YTHning vujudga kelish sabablarini aniqlash uchun;

-YTHni tahlil qilish uchun univyersal dastur tuzish maqsadida. Maqsad va vazifalariga qarab YTHni tahlil qilishning miqdoriy, sifat va topografik usullari mavjud. YTHni miqdoriy usul bilan tahlil qilishda halokatlarning

absolyut, nisbiy va solishtirma ko‘rsatkichlari o‘rganiladi. Nisbiy halokatlilik ko‘rsatkichlarini hisoblashda bitta absolyut ko‘rsatkich boshqa absolyut


ko'rsatkichga nisbatan olinadi. Bunda nisbiy ko'rsatkichni umumiy ko'rinishda quyidagi formula orqali hisoblash mumkin:

$$O = KA/ B \quad (1)$$

bu yerda: O - nisbiy ko'rsatkich; A/ B - biron-bir absolyut ko'rsatkichlar; K- masshtabli koeffitsient.


Masalan: A - YTH soni, B - transport vositalari soni bo'lsa va K = 104 olinsa, bunda juda ko'p ishlatiladigan nisbiy ko'rsatkich YTH sonining 10 ming transport vositasiga to'g'ri keladigan hisobi kelib chiqadi. Xuddi shuningdek, 10 ming aholi soniga va boshqa hisoblar olinishi mumkin. Yo'l sharoitlarini hisobga olishda ko'pincha nisbiy halokatlilik koeffitsientidan foydalaniladi.

Uzun bir xil geometrik elementga ega yo'l bo'laklarini hisoblashda YTH sonini 1 million avtomobil-kilometrga nisbati bilan o'lchanishi qabul qilinib, bu yerda: Z - bir yillik halokatlar soni; N - bir sutkadagi o'rtacha yillik harakat miqdori, avt/sutka; L - yo'l uzunligi, km. Juda qisqa masofada (ko'prik, yo'l o'tkazgich, chorraha va h.k.) yo'l sharoiti bilan farqlanadigan bo'laklarda nisbiy halokatlilik koeffitsienti odatda quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:



## 1-rasm. Haydovchilar aybi bilan sodir etilgan YTH ning yillar davomida o'zgarishi.

O'zbekiston Respublikasi umumfoydalanuvdagi avtomobil yo'llarida sutka soatlaridagi YTHning taqsimlanish gistogrammasi 2-rasmda keltirilgan.



## 2-rasm. Sutkadagi YTHning taqsimlanish gistogrammasi.

Bugungi kunda aholining tez suratlarda bilan o'sib borishi avtomobil transportiga bo'lgan ehtiyojni yanada orttirdi. Bu esa avtomobil yo'llarida, shahar ko'cha va maydonlarida transport vositalari normal rejimining buzilishiga, yo'ltransport hodisalarining vujudga kelishiga olib kelmoqda. YTH xalq xo'jaligida material sarfiga, transport vositalari va inshootlariga ziyon etishiga, insonlarning jarohatlanishiga yoki halok bo'lishiga olib kelishi mumkin. Evropa davlatlarining transport xavfsizligini ta'minlovchi soha statistika xizmatining 2012 yilda avtomobil yo'llarida halok bo'lganlar to'g'risidagi ma'lumoti 1.2-jadvalda keltirilgan.

1.2-jadvaldagi ko'rsatkichlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, bir yil ichida eng ko'p halok

bo'lganlar Xitoyda bo'lib 98740 kishini tashkil etadi. Bu ko'rsatkich bo'yicha ikkinchi o'rinda Hindiston davlati bo'lib, unda 34000 kishi har yili hayotdan ko'z yumishi kuzatiladi. YTHda 100 ming aholiga halok bo'luvchilar soni bilan solishtirilsa, unda Rossiya davlati eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lib, 23,7 miqdorni tashkil etadi.

Dunyo mamlakatlarida avtomobil yo‘llarida halok bo‘lganlar to‘g‘risidagi  
ma‘lumoti

Davlatlar	YTH jami halok bo‘lganlar soni (ming kishi)	100 ming aholiga YTH da halok bo‘lganlar soni
Rossiya	34,00	23,70
Braziliya	34,00	18,24
AQSH	43,44	14,69
Avstriya	0,77	9,41
Hindiston	94,97	8,79
Avstraliya	1,64	8,16
Xitoy	98,74	7,56
Daniya	0,33	6,07
Yaponiya	6,87	5,39
Angliya	3,20	5,29

Lekin Yaponiya, Angliya davlatlarida har 100 000 kishiga halok bo‘luvchilar soni 5,39–5,29 tani tashkil etib, Rossiya davlatidagi ko‘rsatkichdan 4,4 marotaba kichikdir. Statistik ma‘lumotlarda ko‘plab zararlanishni haydovchi va piyodalar tashkil etadi. Umumiy YTHlarning yarmi atrofida shaharlarda sodir etilishi kuzatiladi.

**Adabiyotlar:**

1. Avtomobillar xarakat xavfsizligiga faol ta’sir qiluvchi ekspluatatsiyaviy ko‘rsatkichlari.// MUBB o‘g‘li, SAI o‘g‘li //Механика и технология,// 123-128
2. Road traffic safety and its impact on the development of modern road-transport expertise// MU Boliqul o‘g‘li //Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development 7,// 157-164

3. Studying The Quantity And Composition Of Traffic In Public Transport Directions//MU Boliqul o'g'li //Eurasian Research Bulletin 18,// 114-132
4. Jamoat transportlari yo'nalishlarida harakat miqdori va tarkibini tadqiq qilish// MU Boliqul o'g'li, SA Ismoiljon o'g'li//Scientific Impulse 1 (7),// 793-798
5. Dvigatel konstruktsiyasi va ishchi jarayonlarini boshqarishni mukammallashtirish// SA Ismoiljon o'g'li, MU Boliqul o'g'li //Scientific Impulse 1 (4)//, 536-542
6. Studying The Quantity And Composition Of Traffic In Public Transport Directions//MU Boliqul o'g'li//Eurasian Research Bulletin //8, 114-132